



INCLUDING THE IDEA OF NATIONAL INDEPENDENCE IN STUDENTS IN FINE ARTS CLASSES

Kamola Suvonova

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

ABSTRACT

This article focuses on cultivating a sense of love for the Motherland and national values by instilling the idea of national independence in the minds of the younger generation through art classes.

Key words: culture, art, national independence, portrait, folk arts, education, color, reproduction. Keyingi yillarda ta'lim sohasidagi islohotlar, tizimni takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumatimiz qarorlari ta'lim-tarbiya tizimini hayot bilan bog'lashni, ta'lim samaradorligiga erishishni, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qila oladigan, har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, komil insonlarni tarbiyalab yetkazishni talab etadi. Yuksak ma'naviyatli inson haqiqiy ma'noda yetuk mutaxassis hisoblanib, jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashda muhim o'rinn tutadi. O'quvchilarni jamiyatda barkamol, ma'naviy mafkurasi, fikri sog'lom, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalash uchun avvalo, o'qituvchi o'z sohasining bilimdoni, barcha sohalarda bo'layotgan yangiliklarni, ma'lumotlarni o'zlashtirgan bo'lishi, ta'lim-tarbiya tizimidagi islohot talablarini chuqur anglashi lozim.

Mustaqillikdan so'ng barcha turkumdag'i predmetlar, jumladan, tasviriy san'at fanini davr talabi asosida o'qitishga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Mustabid tuzum davrida ushbu predmetga ikkinchi darajali deb qaralgan bo'lsa, mustaqillikning ilk yillardanoq "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at konsepsiysi" tayyorlandi, yangi dastur va shuningdek, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratish uchun olimlar, ilg'or o'qituvchilar jalg etildi.

Bugungi kunda mustaqil Respublikamizning istiqbolini, milliy istiqlol g'oyasini, Prezidentimizning axloq, madaniyat, san'at, fan haqidagi odilona fikrlarini, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni va obro'-e'tiborining tobora oshib borayotganligini o'quvchilar ongiga yetkazishda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati katta.

Inson o'zini anglasa, milliy qadriyat va an'analarini, o'tmish merosni chuqur bilsa, unda Vatanga mehr-muhabbat tuyg'usi ildiz otadi, yuksaladi. Dunyo tamadduni, taraqqiyotiga juda katta ta'sir o'tkazgan bizning boy madaniy tariximiz ildizlari shu qadar teran va chuqurki, uni o'rgangan sari o'quvchilar ongida, shu urida shu yurt tarixi, buguni va kelajagiga hurmat-ehtirom, ishonch, g'urur uyg'onishi tabiiydir. Muhimi, shu his-tuyg'ularni rivojlantirish uchun oldindan rejalshtirilgan holda ta'lim-tarbiyaning imkoniyatlaridan kengroq foydalana olishdir. Bu borada ayniqsa, tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'ziga xos o'rni bor. Chunki, o'quvchilarda rasm chizish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga ularni mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini ranglar bilan ifodalay olishga, tasviriy san'at asarlarini tahlil qila olishga, go'zallikni ko'ra olishga o'rgatish bu predmetning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'rganilayotgan mavzu, ijodi o'rganilayotgan musavvirlar, xalq amaliy san'ati ustalarining hayoti va ijodi, ular yaratgan san'at asarlari milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirishda muhim manba bo'la olishini hisobga olish lozim. Jumladan, portret janri mavzusi o'rganilayotganda avvalo, portret haqida, o'zbek va chet el portretchi rassomlari hamda ularning yaratgan asarlari haqida o'quvchilar bilimlarga ega bo'ladilar. Bunda ayniqsa, yurtimiz sha'ni, ozodligi, farovonligi uchun umrini, butun kuch-g'ayratini bag'ishlagan buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz siymolari aks etgan asarlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, O'zbekiston Xalq rassomlari Malik Nabiyevning "Amir Temur", Abdulhaq



Abdullayevning “Alisher Navoiy” portretlari yuksak mahorat bilan yaratilgan bo‘lib, tarbiyaviy – ma’naviy jihatdan tomoshabinlarga, o‘quvchilarga kuchli emotsional ta’sir etuvchi asarlar sirasiga kiradi.

M. Nabiyevning “Amir Temur” portretida buyuk bobokalonimizning o‘ziga xos shijoati, mardligi, xalq uchun, yurt farovonligi uchun bir umr zahmat chekkan sarkarda va dono rahbar ekanligi yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Bu asar tahlil etilganda asarning yaratilish tarixi, koloriti, g‘oyasi haqida kengroq to‘xtalish kerak. Ta’kidlash lozimki, xalqimizning orzu-umidlari, obro‘sni uchun kurashgan ana shunday siymolar obrazini yaratish baxti mustaqillik yillaridan keyingina amalga oshdi. “Amir Temur” portreti tahlil qilinar ekan, buyuk sarkardaning jahon tarixida va taraqqiyotida tutgan beqiyos o‘rni, xizmatlari e’tirof etiladi.

A. Temur bolalikdan bilim olishga, harbiy san’atga intiladi. Uning otasi Amir Tarag‘ay obro‘libeklardan bo‘lib, farzandining har tomonlama aql-zakovatlari, mard bo‘lib yetishishi uchun qayg‘urgan. Shuning uchun A. Temur hadis ilmini, dunyoviy bilimlarni mukammal egalladi, harbiy san’atni o‘rgandi. A.Temur o‘zining ham ma’naviy, ham jismoniy kuchini yurt obodonchiligi uchun, bog‘lar yaratish uchun, jonajon xalqining og‘irini yengil qilish uchun sarflagan. Bu davrda ilm-ma’rifatga katta e’tibor berildi, go‘zal shaharlar barpo etildi, madrasalar, masjidlar, hammomlar, shifoxonalar, ko‘rkam binolar barpo etildi.

M. Nabiyevning yaratgan portretida buyuk bobomizning og‘ir va bosiqligi, teran fikrlay olishi, aql-idrok egasi ekanligi, ziyrak, qobiliyatli, samimiy insonligi o‘z aksini topgan.

Akademik rassom A. Abdullayevning “Alisher Navoiy” portretida ham buyuk mutafakkir shoir siyimosi yuksak mahorat bilan yaratilganligi hech kimni befarq qoldirmaydi. Mahoratli rassom bu asarni yaratish uchun uzoq yillar ter to‘kkanaligi, izlanganligi ma’lum. Bu asarda A. Navoiy ijod cho‘qqisiga yetgan, butun dunyo zahmatlarini, mashaqqatlarini ko‘rgan, yuzlaridan nur yog‘ilib turgan nuroni donishmand sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Ulug‘ shoirning bo‘y-basti bilan tasvirilanganligi asarning ta’sirchanligini yanada oshirgan, go‘yo u yaratgan ishlarning salobati, salohiyati ulkanligiga bir ishoradir. Dunyon “qalam bilan zabit etgan” buyuk shoirga Moskva, Boku, Tokio kabi shaharlarda haykal o‘rnatilganligini ta’kidlash o‘quvchilar qalbida g‘urur va iftixor uyg‘otishi tabiiydir.

O‘quvchilar tasviriy san’at asarlari bilan tanishtirilganda, asar qahramonining his-tuyg‘ulari, kechinmalari, orzu-umidlarini ular qalbiga yuqtira olish muhimdir. Masalan, T.Sodiqovning “To‘maris” asarini tahlil qilinganda avvalo, o‘quvchilarni o‘sha davr, muhitga olib kirish lozim. Asarda bizning obod va go‘zal yurtimizga ko‘z olaytirgan, yurtning tinchini buzgan bosqinchi Eron shohiga qarshi mardonavor jang olib borgan mard ayol, massagetlar qabilasi boshlig‘i To‘maris jasorati mohirlilik bilan tasvirlangan. Asar g‘alaba ramzi - qizg‘ish koloritda ishlangan bo‘lib, unda g‘olib ajdodlarimizning shoh Doro I boshini tanasidan judo qilib, qon to‘la meshga solayotganligi tasvirlangan. Asarni tahlil qilish orqali ajdodlarimizning ozodlik va erk uchun olib borgan tarixiy kurashlari, g‘oyasi bilan tanishtiriladi. Bu g‘oya yillar davomida shakllangan, xalqimizning ozodligi uchun kurashgan ajdodlarimizning orzusida bo‘lgan va bugungi kunda bizlarga nasib etgan milliy istiqlol g‘oyasidir.

Tasviriy san’at bo‘yicha Davlat ta’lim standarti mazmuniga ham milliy istiqlol g‘oyasi bejizga singdirilmagan. Vatan tushunchasiga ega bo‘lish, davlatimizning ramziy belgilarini bilish, ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usini anglash kabi talablar mazmuni milliy istiqlol g‘oyalari bilan sug‘orilgan.

O‘zbekiston me’moriy yodgorliklarini, ona tabiat ko‘rinishlarini tasvirlashda, dekorativ rasm chizish darslarida ham o‘quvchilar ana shunday tuyg‘ularni his etishi tabiiydir. Chunki, biz go‘zal san’ati bilan dunyon maftun qilgan buyuk ajdodlar merosiga egamiz. Qadimdan yurtimiz



hududida madaniyat va san'atning keng rivojlanganligi va dunyo tamadduniga, madaniyat taraqqiyotiga uning beqiyos ta'sirini o'quvchilar ongiga singdira olish ularda g'urur, faxrlanish hislarini ham uyg'otishi tabiiydir. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida me'morchilik, xalq amaliy san'ati, fan va madaniyatning yuksak darajaga chiqqanligi, G'arbda bu davrni "Sharq Renessansi" davri deb ta'riflanganligini e'tirof etish kerak. Samarqanddagi Shohi Zinda, Bibixonim, A. Temur majmualari, Ulug'bek observatoriysi va madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Toshkentdag'i Zangi ota, Turkistondagi A. Yassaviy majmualari shu davrning yuksak me'morchilik namunalaridir. Shuni ham ta'kilash kerakki, mustaqillik tufayli bu ulkan obidalar yanada chiroy ochdi, san'atimizning barcha turlari tobora rivojlanishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi. Ana shunday san'at namunalari aks etgan reproduksiyalar, slaydlar, multimedialar o'quvchilarda avvalo, go'zallikni ko'ra olish, uni his etish, ijodkorlikka intilish bilan birga, milliy madaniyatimiz tarixiga hurmat, Vatanga muhabbat his-tuyg'ularini rivojlantirishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.
- 2.Oripov B. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikaksi va metodikasi. Oliy o'quv yurtlarining "badiiy grafika" va "san'atshunoslik" fakultetlari talabalari uchun o'quv-metodik qo'llanma. - Toshkent, "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2013 yil.
- 3.Bulatov S.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. O'quv – metodik qo'llanma. Toshkent, "Mehnat" nashriyoti, 1991 yil.